

## FRANSUZ TILIDA SODDA PREDLOGLARNING QO'LLANILISHI

Sh.Q.Xolmanova

SamDChTI fransuz filologiyasi o'qituvchisi

S.Abdurashidova

SamDChTI talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14940575>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola fransuz tilidagi sodda predloglar va ularning qo'llanilishi tahlil qilinadi. Predloglar so'zlar orasidagi bog'lanishlarni ta'minlab, gap ichida joy, vaqt, sabab, maqsad, vosita va egalik kabi turli munosabatlarni ifodalashda ishlatiladi. Maqolada eng ko'p ishlatiladigan predloglarning ma'nolari va ularning kontekstdagi ishlatilishi tushuntiriladi.

**Kalit so'zlar:** predloglar, sodda predloglar va grammatik qoidalar.

### USE OF SIMPLE PREPOSITIONS IN FRENCH

**Abstract.** This article analyzes simple prepositions in French and their use. Prepositions provide connections between words and are used to express various relationships within a sentence, such as place, time, reason, purpose, means, and possession. The article explains the meanings of the most commonly used prepositions and their use in context.

**Keywords:** prepositions, simple prepositions, and grammatical rules.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОСТЫХ ПРЕДЛОГОВ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ

**Аннотация.** В данной статье анализируются простые предлоги во французском языке и их употребление. Предлоги обеспечивают связь между словами и используются для выражения различных отношений в предложении, таких как место, время, причина, цель, средства и принадлежность. В статье объясняются значения наиболее употребительных предлогов и их использование в контексте.

**Ключевые слова:** предлоги, простые предлоги и грамматические правила.

Har qanday til o'zining aniq grammatik qoidalari bilan ajralib turadi. Fransuz tilida bu qoidalar orasida predloglarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Predloglar yordamchi so'z bo'lib ko'makchilar kabi gapda so'zlarni bir - biri bilan bog'lash va ularning o'zaro munosabatlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Fransuz tilida kelishiklar yoq biron - bir otlar turlanmaydi va kelishik qo'shimchalarining ma'nosi turli predloglar yordamida ifodalanadi.

Predlog yordamchi so'z bo'lib, ko'makchilar kabi gapda so'zlarni bir-biri bilan bo'glash va ularning uzaro munosabatini ko'rsatish uchun xizmat kiladi.

Fransuz tilida kelishiklar yo'q, binobarin otlar turlanmaydi va kelishik qo'shimchalarining ma'nosi turli predloglar yordamida ifodalanadi.<sup>1</sup>

Fransuz tili grammatikasi jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lib undagi predloglar gap tarkibidagi so'zlar orasidagi munosabatni belgilovchi muhim elementlardan biri hisoblanadi.

Sodda predloglar (les prépositions simples) tarkib jihatdan bitta so'zdan iborat bo'lib, ular sintaktik bog'lovchi va semantik aniqlovchi vazifasini bajaradi. Shuningdek P. Grevisse "Le Bon Usage" asarida fransuz predloglarini tog'ri qo'llash qoidalarini yoritib sodda predloglarning nutq tuzilishdagi ahamiyatini ko'rsatgan<sup>2</sup>.

Predloglar o'zgaras so'z turkumi bo'lib, gapda so'zlarning bog'lanishiga xizmat qiladi va so'zlar orasidagi turli munosabatlarni bildiradi. Fransuz tilida predloglarning roli rus tilidagi predloglanikiga qaraganda ancha kattadir, chunki fransuz tilida kelishik qo'shimchalari mavjud bo'maganligi sababli, ular o'zbek va rus tillaridagi kelishik qo'shimchalari o'rnini egallaydi va ko'pincha ular o'zbek va rus tillariga tarjima qilinmaydi<sup>3</sup>. Masalan,

*Bu kutubxonaning eshigi - C'est la porte de la bibliothèque.*

*Il passe le livre à son ami - U kitobni do'stiga uzatdi.*

*Fransuz tilida sodda predloglar*

Sodda predloglar (Les prépositions simples) bitta so'zdan iborat bo'lib gap tarkibida so'zlar orasidagi munosabatni belgilaydi. Ular ma'no jihatidan turli guruhlariga bo'linadi va gap tarkibida muhim grammatik rol o'ynaydi. Agar predloglar noto'g'ri yoki umuman ishlatilmasa gapning mazmuni buzilishi yoki noaniq bo'lib qolishi mumkin.

-les prépositions de lieu bu predloglar biror narsaning joylashuvi yoki yo'nalishini bildiradi.

1.À predlogi da, ga, tomon ma'nosida ishlatiladi. Fransuz tilida kelishik qo'shimchalari bo'lmaydi, ularning o'rnida esa predloglar ishlatiladi, à predlogi jo'nalish kelishigi qo'shimchasi - ga va o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi - da ni ifodalaydi<sup>4</sup>.

*Je vais à l'école - Men maktabga ketyabman.*

<sup>1</sup> M. Boboxonov, Fransuz tilida predloglarning qo'llanilishi. Fransuz tili grammatikasi fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma Namangan – 2010. 5-b

<sup>2</sup> Le Petit Grevisse: grammaire française. [Grevisse, Moris](#), Bruxelles – 2015, 245.b

<sup>3</sup> A.E.Mamatov, M.M.Mirxoliqov, A.S.Asqarov – FRANSUZ TILINING AMALIY GRAMMATIKASI, Toshkent.2015, S.136

<sup>4</sup> A.E.Mamatov, M.M.Mirxoliqov, A.S.Asqarov – FRANSUZ TILINING AMALIY GRAMMATIKASI, Toshkent.2015, S.138

*à* predlogi harakat yoʻnalishini bildiradi. Agar bu predlog ishlatilmasa, gap noaniq boʻlib qoladi.

Sur - ustida

Le livre est **sur** la table - Kitob stol ustida.

Sur predlogi kitobning joylashuvini bildiradi.

Dans - ichida

Il y a un stylo *dans* la boîte - Qutining ichida ruchka bor.

Dans predlogi ruchkaning joyini aniq bildiradi.

Sous - ostida

Le tapis sous la table – Gilam stolning ostida

Entre – orasida, faqat ikkita narsaning orasida degan maʼnoni anglatadi.

Le tableau est entre deux fenêtres – kartina ikki derazaning orasida

Fransuz tilida sodda predloglar (Les prépositions simples) gapdagi soʻzlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni ifodalovchi muhim unsirlardan biridir. Ular joylashuv, yonalish, sabab, vaqt va boshqa munosabatlarni bildiradi. Masalan *à* (da, ga) *de* (dan ning) *en* (ichida, da) *avec* (bilan) kabi predloglar keng qoʻllaniladi. Bu predloglar ot, sifat yoki feʼl bilan birikib, gapning maʼnosini toʻliq shakllantirishga yordam beradi. Fransuz tilini oʻrganishda ularni togʻri ishlatish muhim boʻlib kontekstga qarab turlicha maʼno anglatishi ham mumkin.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, les prépositions simples va les prépositions de lieu fransuz tilida gaplar qurishda asosiy rol oʻynaydi. Ular bizga nafaqat obyektlarning qayerda joylashganligini koʻrsatishga imkon beradi. Ulardan foydalanishni oʻzlashtirish fransuz tilida samarali muloqot qilish uchun muhimdir.

## REFERENCES

1. M. Boboxonov, Fransuz tilida predloglarning qoʻllanilishi. Fransuz tili grammatikasi fanidan oʻquv-uslubiy qoʻllanma Namangan – 2010. 5-b
2. Le Petit Grevisse: grammaire française. Grevisse, Moris, Bruxelles – 2015, 245b.
3. A.E.Mamatov, M.M.Mirxoliqov, A.S.Asqarov – FRANSUZ TILINING AMALIY GRAMMATIKASI, Toshkent.2015, S.136
4. A.E.Mamatov, M.M.Mirxoliqov, A.S.Asqarov – FRANSUZ TILINING AMALIY GRAMMATIKASI, Toshkent.2015, S.138